PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILIDA SIFAT SO‘Z TURKUMI: SEMANTIK, MORFOLOGIK VA SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Aralova Ruxshona Umidillo qizi
Denon tadbirkorlik va pedagogika instituti
Filologiya fakulteti talabasi
Gmail: Aralovaruxshona@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23104450

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy-amaliy maqolada hozirgi o‘zbek adabiy tilida sifat so‘z turkumining o‘rni, uning grammatik va semantik tabiatiga oid nazariy hamda amaliy masalalar keng yoritilgan. Maqolada sifatlarning ma’no turlari, asliy va nisbiy sifatlar tasnifi, sifat darajalarining hosil bo‘lish usullari, sifatlarning tuzilishiga ko‘ra turlari va ularning yasalishi tahlil qilingan. Shuningdek, sifatlarning otlashuvi va ularning gapdagi sintaktik vazifalari tegishli misollar yordamida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: sifat, asliy sifat, nisbiy sifat, sifat darajalari, otlashuv, substantivatsiya, sodda sifat, qo‘shma sifat, juft sifat, takroriy sifat, sintaktik vazifa.

ABSTRACT

This article presents a comprehensive analysis of the role and linguistic nature of adjectives as an independent part of speech in modern literary Uzbek. It covers semantic types of adjectives, the classification of qualitative and relative adjectives, mechanisms of forming degrees of comparison, structural types and word formation rules. Additionally, the phenomenon of substantivation and the syntactic functions of adjectives in sentences are examined using contextual examples.

Keywords: adjective, qualitative adjective, relative adjective, degrees of comparison, substantivation, simple adjective, compound adjective, paired adjective, reduplicated adjective, syntactic function.

KIRISH

O‘zbek tili grammatik qurilishida mustaqil so‘z turkumlari orasida sifat alohida o‘rin egallaydi. Sifat deb shaxs, narsa-buyum, hodisa hamda tushunchalarning belgisini, xususiyatini, holatini, rang-tusini va hajm-o‘lchovini ifodalovchi so‘z turkumiga aytiladi. Sifatlar asosan otlar bilan birikib keladi va ularning turli belgi-xususiyatlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Sifatlar o‘z grammatik va semantik tabiatiga ko‘ra qanday, qanaqa, qaysi kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Nutq jarayonida sifat turkumi fikrning aniqligi, tasviriyligi va ta’sirchanligini ta’minlashda muhim uslubiy vosita hisoblanadi. Sifat so‘zlarning mavjudligi tasvirlanayotgan obyektni kitobxon yoki tinglovchi ko‘z o‘ngida yanada yorqinroq va jonliroq namoyon etish imkonini beradi.

SIFATLARNING MA’NO TURLARI. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida sifatlar bildiradigan belgi va xususiyat xarakteriga ko‘ra bir qancha semantik guruhlarga bo‘linadi. Xususiyat bildiruvchi sifatlar shaxs yoki narsalarning ichki, ma’naviy-ruhiy, fe’l-atvor va xarakter xususiyatlarini

ifodalaydi. Masalan: kamtarin, sho‘x, ziqna, sodda, mehribon, samimiy.Holat bildiruvchi sifatlar predmet yoki shaxsning vaqtinchalik va doimiy jismoniy hamda ruhiy holatlarini bildiradi. Masalan: keksa, badavlat, iliq, tinch, salqin, ochiq, xursand, g‘amgin. Shakl-ko‘rinish bildiruvchi sifatlar narsa va hodisalarning tashqi tuzilishi, ko‘rinishi va shakliy belgilarini tasvirlashga xizmat qiladi. Masalan: gavdali, novcha, qiyshiq, yassi, tik. Rang-tus bildiruvchi sifatlar narsalarning rangi va tusini ko‘rsatadi. Masalan: oq, qora, qizil, pushti, sariq, ko‘k, yashil.

Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlar predmetning fazoviy o‘lchamlari va ko‘lamini ifodalaydi. Masalan: keng, tor, uzun, yaqin, kam, og‘ir, chuqur, ingichka. Maza-ta’m bildiruvchi sifatlar ta’m bilish a’zolari orqali seziladigan belgilarni ifodalaydi. Masalan: nordon, achchiq, bemaza, shirin, sho‘r. Hid bildiruvchi sifatlar hid bilish sezgilari orqali anglashiladigan belgilarni ifodalashda qo‘llanadi. Masalan: muattar, xushbo‘y, badbo‘y, sassiq. O‘rin va paytga munosabat bildiruvchi sifatlar belgining ma’lum bir makon yoki zamonga xos ekanligini anglatadi. Masalan: kechki, tonggi, kuzgi, bahorgi, ichki, qishki.

ASLIY VA NISBIY SIFATLAR. Semantik hamda morfologik tabiatiga ko‘ra hozirgi o‘zbek tilidagi sifatlar asliy va nisbiy sifatlar guruhiga ajratiladi. Asliy sifatlar deganda narsa va hodisaning belgisini bevosita, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalaydigan hamda darajalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan sifatlar asliy sifatlar deyiladi. Asliy sifatlar -roq daraja ko‘rsatkichini erkin qabul qiladi va belgining ortiq yoki kamligini ko‘rsata oladi. Masalan: yaxshi, katta, uzun, qisqa, oq, qora, semiz, chiroyli, shirin. Asliy sifatlar nutqda fe’llarga birikib, harakatning belgisini ham anglatishi va ravish vazifasida kelishi mumkin. Masalan: yaxshi o‘qimoq, baland gapirmoq. Nisbiy sifatlar esa, belgini to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki boshqa bir narsa, harakat, o‘rin yoki paytga nisbat berish orqali ifodalaydigan sifatlar nisbiy sifatlar sanaladi. Nisbiy sifatlarda darajalanish xususiyati bo‘lmaydi. Ular asosan ot va boshqa so‘z turkumlariga maxsus sifat yasovchi affikslarni qo‘shish orqali hosil qilinadi.Narsaga nisbat beruvchi sifatlar: bolali ayol, devoriy gazeta, oltin soat, suvsiz yer.Vaqtga nisbat beruvchi sifatlar: kuzgi shamol, oylik reja, kechki majlis, tonggi havo.O‘ringa nisbat beruvchi sifatlar: ichki tartib, tog‘li hudud, qishloq xo‘jaligi.

SIFAT DARAJALARI. Sifat ifodalayotgan belgining me’yorga nisbatan ortiq, kam yoki oddiy holatda ekanligini ko‘rsatuvchi grammatik shakllar sifat darajalari deyiladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida sifatning oddiy, ozaytirma va orttirma darajalari ajratiladi. Oddiy daraja belgining odatdagi me’yorda ekanligini ko‘rsatadi va boshqa darajalar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Oddiy darajadagi sifatlar tarkibida maxsus daraja ko‘rsatkichlari bo‘lmaydi. Masalan: qizil, oq, shirin, toza, baland, keng. Ozaytirma daraja belgining odatdagi me’yordan biroz kam, zaifroq yoki kuchsizroq ekanligini anglatadi. Ozaytirma daraja morfologik va leksik usullar orqali hosil qilinadi. Morfologik usulda -roq affiksi orqali qiyosiy belgi hosil qilinadi. Masalan: kattaroq, kichikroq, uzunroq.

-ish, -mtiroq, -(i)mtir kabi shakllar , asosan, rang-tus sifatlarida qo‘llanadi. Masalan: qizg‘ish, sarg‘ish, ko‘kish, qoramtir, oqimtir.

-gina, -kina, -qina shakllari ham belgining kuchsizligini ifodalashi mumkin. Masalan: kamtargina, shiringina, kichikkina.

Leksik usulda sifat oldidan sal, xiyol, yarim, nim, och, ozgina kabi so‘zlar qo‘llanadi. Masalan: sal durust, nim pushti, och sariq, ozgina shirin. Orttirma daraja belgining me’yordan ancha ortiq, yuqori va kuchli ekanligini ko‘rsatadi. Orttirma daraja leksik va fonetik usullar orqali hosil qilinadi.

Leksik usulda sifat oldidan eng, juda, g‘oyat, nihoyatda, behad kabi so‘zlar qo‘llanadi. Masalan: juda chiroyli, eng yaxshi, g‘oyat minnatdor, nihoyatda muhim, behad mamnun.

Fonetik usulda sifatning tovush tarkibida kuchaytirish va takrorlash hodisalari yuz beradi. Masalan: yam-yashil, oppoq, dum-dumaloq, bus-butun, ko‘m-ko‘k.

SIFATNING OTLASHUVI. Sifat nutq jarayonida otga bog‘lanmasdan, mustaqil holda kelishi, otga xos bo‘lgan kelishik, egalik va ko‘plik qo‘shimchalarini qabul qilishi hamda gapda otning sintaktik vazifalarini bajarishi sifatning otlashuvi deyiladi. Otlashgan sifatlar gapda ega, to‘ldiruvchi, qaratqich va boshqa otga xos sintaktik vazifalarda kelishi mumkin. Ega vazifasida: Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib gapiradi. To‘ldiruvchi vazifasida: Mardni maydonda sinash kerak. Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘. Qaratqichli aniqlovchi vazifasida: Yaxshining so‘zi qaymoq, yomonning so‘zi to‘qmoq.

SIFATLARNING TUZILISHIGA KO‘RA TURLARI. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida sifatlar tuzilishiga ko‘ra sodda, qo‘shma, juft va takroriy sifatlar guruhiga bo‘linadi.

1.Sodda sifatlar. Sodda sifatlar birgina o‘zak-morfemadan yoki bir o‘zak va sifat yasovchi affiksdan tashkil topadi.

2.Sodda tub sifatlarga shirin, baland, oq, uzun, chaqqon, zukko, dono, tor kabi sifatlar kiradi. Sodda yasama sifatlarga bilimli, suvsiz, kechki, ishchan, oilaviy, tirishqoq, devoriy kabi sifatlar misol bo‘ladi.

3.Qo‘shma sifatlar. Qo‘shma sifatlar birdan ortiq o‘zak-negizning birikishi natijasida hosil bo‘lib, bitta belgi tushunchasini anglatadi. Masalan: sheryurak, mushtumzo‘r, uzunquloq, ochko‘z, kamgap, hozirjavob.

4.Juft sifatlar. Juft sifatlar ikki so‘zning teng bog‘lanishi asosida hosil bo‘ladi. Ular odatda chiziqcha orqali yoziladi. Masalan: olis-yaqin, og‘ir-yengil, oq-qora, katta-kichik, issiq-sovuq, yaxshi-yomon. Juft sifatlar sinonimik ma’nodagi so‘zlardan ham tashkil topishi mumkin. Masalan: xor-zor, soya-salqin. Ba’zi juft sifatlarning bir qismi yoki har ikki qismi mustaqil ma’no anglatmaydigan birliklardan tashkil topadi. Masalan: bo‘sh-bayov, eski-tuski, uvali-juvali, chalo-chulpa.

5.Takroriy sifatlar. Takroriy sifatlar bir xil shakldagi so‘zlarning aynan takrorlanishi orqali hosil bo‘ladi. Ular belgi-xususiyatni ta’kidlash va kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Masalan: baland-baland, mayin-mayin, shirin-shirin, xilma-xil.

SIFATLARNING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI. Sifatlarning asosiy sintaktik vazifasi ot bilan birikib, uning belgisini aniqlashdan iborat. Bunday holatda sifat gapda aniqlovchi vazifasini bajaradi. Masalan: Chiroyli gullar bog‘ni bezab turibdi. Ushbu gapda chiroyli so‘zi gullar so‘zining belgisini bildirib, aniqlovchi vazifasida kelgan.

Sifatlar kesim vazifasida ham qo‘llanishi mumkin. Masalan: Bugun havo iliq. Bu gapda iliq so‘zi kesim vazifasini bajargan. Sifatlar otlashganda ega va to‘ldiruvchi kabi sintaktik vazifalarda ham kelishi mumkin. Masalan: Yaxshilar doimo el orasida hurmat qilinadi. Ushbu gapda yaxshilar so‘zi otlashib, ega vazifasida qo‘llangan.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, sifat so‘z turkumi hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik va grammatik tizimida muhim o‘rin egallaydi. Sifatlarning ma’no turlarining rang-barangligi, asliy va

nisbiy guruhlarga bo‘linishi, darajalanish imkoniyatlari, otlashuv jarayoni hamda turli tuzilishga ega bo‘lishi o‘zbek tilining boy grammatik imkoniyatlarini namoyon etadi. Sifatlar nutqda predmet va hodisalarning belgilarini aniq ifodalash bilan birga, fikrning tasviriyligi va ta’sirchanligini ham oshiradi. Shuning uchun sifatlarning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini o‘rganish o‘zbek adabiy tilining grammatik qurilishini chuqur anglashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili (darslik). – Toshkent: "Universitet",2006.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (darslik). – Toshkent: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti,2013.
3. Sharipov F. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (O‘zbek morfologiyasining taraqqiyoti) (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: "Bookmany print", 2024.
4. Sharipova O'., Yo'ldoshev I. Tilshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: 2006.
5. https://universalpublishings.com/index.php/itfttdm/article/download/775/1494/761
6. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.